

Boqiylik - barhayotlik belgisi

O'zidan ko'ra o'zgalar dard-u tashvishlari qalbiga iztirob bera boshladimi va u qog'oz yuziga tushar ekan, demak, chinakam iste'dod, shoirlit salohiyati nish urgani haq. 60-yillarda yozgan she'rlaridayoq ana shu tuyg'uni his etish mumkin edi. Boqiylikka nishon bo'lgan O'zbekiston qahramoni, ulug' shoirimiz Abdulla Oripov ijodiyotida xuddi shu holatni kuzatamiz. Abdulla Oripov ijodiyotini, chop etilgan va chop etilmagan asarlarini ommalashtirish, she'riyatini tahlil va targ'ib etishda ta'lim muassasamiz peshqadam bo'layotgani g'ururlidir. 2020 yilning 15 avgust kuni "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulbteti tashabbusi bilan ulug' shoirga bag'ishlab "Umumbashariy fazilatlar tarannumi" mavzusida ZOOM platformasi orqali ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi.



Tadbirni fakulbtet dekani, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent Rashid Hakimov o'zlarining kirish so'zi bilan ochib berdi. Ma'rifiy tadbirda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, "Do'stlik" va "Mehnat shuhrati" ordenlari sohibasi, "Oltin qalam" Milliy xalqaro mukofotining nishondori, iqtidorli shoira Zulfiya Mo'minova ishtirok etdi. Bugungi kunda ularning 15 dan ortiq she'riy majmualari chop etilgan bo'lib, 50 dan ortiq she'rlari taniqli san'atkorlar tomonidan qo'shiq qilib ijro etilgan. She'rlari tojik, qozoq, ozarbayjon, turk kabi qardosh xalqlar tillariga, shuningdek, arab, rus, polyak, ingliz tillariga ham tarjima qilingan 2019 yili AQSh ning mashhur "Amazon""nashriyotida "Ayolni yengib bo'lmaydi" nomli she'rlar to'plami va o'sha yili Kanada davlatida "Bolaga kitob bering" deb nomlangan asarlari ingliz tilida chop etilgan. Shoira Abdulla Oripov ijodini butun bir dorilfunun deb atadi. Biz ham ularning shogirdi sifatida o'zlarimizni baxtiyor his etamiz deya faxrlandilar. Abdulla Oripovning ustoz sifatida bergen maslahat va yo'l-yo'riqlarini aytib minnatdorliklarini izhor qildi. Ular bilan bog'liq xotirotlarini eslab o'tdilar.



Tadbirda Abdulla Oripovning katta qizlari Shoira Oripova ham ishtirok etib, otalari haqidagi xotirotlari bilan qatnashib davraga yanada jon kiritdi. Institutimiz professor-o'qituvchilari, talabalar va she'riyat muxlislari hamda Toshkent viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazining Davlat tili va ona tili va adabiyoti o'qituvchilari ishtirok etib o'zlarini qiziqtirgan savollari bilan murojaat etishdi. Shunisi e'tiborlikli, tadbir o'tayotgan paytda parallel ravishda ushbu fakulbtetning yoshlari bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinosari Jamshid Turdiev boshchiligidagi bir guruh talaba va magistrantlar "Adiblar xiyoboni"da ulug' shoirimiz Abdulla Oripovning haykali poyiga gullar qo'yib she'rxonlikni boshlab yuborgan edilar. Ijodiy muloqot va xotira shaklidagi ushbu tadbir samimiy va do'stona tarzda kechdi.



Institut yoshlari bilan ishlash bo'yicha prorektori Ruzimurot Choriyev onlaysin tarzda o'tkazilgan ushbu tadbir tashkilotchilari va ishtirokchilariga samimiy minnatdorligini bildirib, bu borada qilinadigan ishlarni aslo susaytirmaslik kerakligini ta'kidladi. Shuningdek, shoir ijodini ommalashtirish bo'yicha qilinadigan turli shakldagi tadbirlar qatorida Abdulla Oripov nomidagi stipendiyani joriy etish ham katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlab o'tdi. Mangulik muhri xalq mehri bilan uyg'un bo'lgan damda boqiylik va barhayotlik nishoni bo'y ko'rsatadi. Bu esa shoir qalbidagi umumbashariy tuyg'ularni, fazilatlarni tarannum etish ilinji bilan chambarchas bog'liq. Yillar, asrlar almasheaveradi, lekin hayoti hikmat ijodi ibratga aylangan buyuk iste'dod xalqimiz va mustaqil mamlakatimiz g'oyalaringin tarannumi, mafkurasining mayog'i sifatida yashayveradi.

TIQXXMMI matbuot xizmati